

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI  
QOSHIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.19/04.07.2023.1.88.01 SONLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

**MELIYEV VOXIDJON PULATOVICH**

**SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH  
SAMARADORLIGINI BAHOLASH  
(Kimyo sanoati korxonalarida misolida)**

**08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
mundarijasi**

**Содержание диссертации доктора философии (PhD) по экономическим  
наукам**

**The content of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in  
economic sciences**

**Meliyev Voxidjon Pulatovich**

Sanoat korxonalari faoliyatini raqamlashtirish samaradorligini baholash  
(Kimyo sanoati korxonalari misolida) .....3

**Мелиев Вохиджон Пулатович**

Оценка эффективности цифровизации деятельности промышленных  
предприятий  
(на примере предприятий химической промышленности).....27

**Meliev Vokhidjon Pulatovich**

Assessing the effectiveness of digitization of industrial enterprises  
(on the example of chemical industry enterprises) .....51

**E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘xati**

Список опубликованных работ  
List of published works .....56

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI  
QOSHIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.19/04.07.2023.1.88.01 SONLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

**MELIYEV VOXIDJON PULATOVICH**

**SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH  
SAMARADORLIGINI BAHOLASH  
(Kimyo sanoati korxonalarida misolida)**

**08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2023.4.PhD/Iqt3654 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (O'zbek, rus va ingliz (qisqacha avtoreferat mazmuni)) tayyorlangan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi rasmiy veb saytida - <https://rgsbm.uz>, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rasmiy veb saytida <https://oak.uz/> va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida - [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net) e'lon qilingan.

**Ilmiy rahbar:**

**Qodirov Tuyg'un Uzoqovich**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor.

**Rasmiy opponentlar:**

**Rasulova Dilfuza Valiyena**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**Norkulov Suxrob Turakulovich**

iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor v.b.

**Yetakchi tashkilot:**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi ilmiy darajalar berish bo'yicha DSs.19/04.07.2023.1.88.01 ilmiy kengashining \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:100003, Toshkent sh., Mirobod tumani, Mirobod ko'chasi 25 uy. Ma'lumot uchun telefon: (99871) 239-03-05, Faks: (998 71) 239-03-05, email: [info@rgsbm.uz](mailto:info@rgsbm.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (№12544 bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent sh., Mirobod tumani, Mirobod ko'chasi 25-uy, ma'lumot uchun telefon: (+998 71) 239-03-05, Faks: (+998 71) 239-03-05, email: [info@rgsbm.uz](mailto:info@rgsbm.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil \_\_\_\_\_ da tarqatilgan

(2025 yil \_\_\_\_\_ dagi «\_\_\_\_\_» raqamli reestri bayonnomasi).

**D. H. Suyunov**

Ilmiy darajalar berish bo'yicha ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Z. U. Berdinazarov**

Ilmiy darajalar berish bo'yicha ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSs), dotsent

**A.T. Kenjabaev**

Ilmiy darajalar berish bo'yicha ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Mavzusining asoslanganligi va zarurati.** Global raqamli iqtisodiyot hajmi Forrester tahlillariga ko'ra 2023-yilda 11.8 trillion AQSh dollarinini tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkichning 2028-yilga borib 16.5 trillion AQSh dollariga etishi prognoz qilingan. IDC-A va Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda raqamli iqtisodiyotning jahon YaIMdagi ulushi 15 foiz yoki 16 trillion AQSh dollari atrofida bo'lib<sup>1</sup>, bunda AQSh va Xitoyning ulushi birgalikda qariyb 66-67 foizini tashkil etgan. OECD hisobotlariga ko'ra raqamli iqtisodiyot 2023-2028-yillarda yillik o'rtacha 7 foizga o'sib, global YaIM o'sishiga nisbatan 2 barobardan ko'proq bo'lishi kutilmoqda<sup>2</sup>. Bu natijalar raqamli transformatsiyani olg'a suruvchi e-commerce, ICT-infratuzilma, raqamli R&D platformalar orqali doimiy o'sishda davom etishini ko'rsatadi. Kimyo sanoati kabi yuqori texnologik ustunlikka ega tarmoqlar uchun raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash ishlab chiqarish samaradorligi hamda mahalliy va jahon bozorlarida raqobatbardoshlikka bevosita ta'sir etadi. Pricewaterhouse Coopers kompaniyasining 2023-yilgi global raqamli operatsiyalar tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, sanoat korxonalarining atigi 10 foizi raqamli transformatsiya jarayonlarini eng yuqori darajada amalga oshirgan, innovatsion texnologiyalarni o'z faoliyatining barcha sohalariga samarali integratsiya qilgan va raqobat ustunligini aynan raqamli yechimlar orqali ta'minlay oladigan "Raqamli chempionlar" deb tasniflanishi mumkin, qolgan 90 foizi esa sinov bosqichida yoki raqamli tashabbuslarni samarali kengaytirish uchun kurashmoqda<sup>3</sup>. Shu jihatdan mamlakatimizda ham rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda raqamli transformatsiyani amalga oshirish hamda korxonalar faoliyatini raqamlashtirish samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamlashtirishning ahamiyati keng e'tirof etilishiga qaramay, ko'plab sanoat korxonalarini, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, o'zlarining raqamli imkoniyatlaridan samarali foydalanishda jiddiy muammolarga duch kelishmoqda. Ushbu qiyinchiliklar tarqoq amalga oshirish strategiyalari, kapitalining etishmasligi, raqamli samaradorlikni baholash uchun ko'rsatkichlarning etarli emasligi va raqamlashtirish salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholash uchun integratsiyalashgan uslubiy yondashuvlar bilan bog'liq dolzarb muammolarning mavjudligi, ularni ilmiy asosda o'rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Mamlakatimizda ham sanoat korxonalarini raqamlashtirish bo'yicha "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi qabul qilingan bo'lib, uning 2.3-bandida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida iqtisodiyotning real

---

<sup>1</sup> Global Digital Economy Report – 2025, [https://www.idc-a.org/download?source=Global%20Digital%](https://www.idc-a.org/download?source=Global%20Digital%20Economy%20Report%202025)

<sup>2</sup> Growth of digital economy outperforms overall growth across OECD, <https://www.oecd.org/en/about/news/press-releases/2024/05/growth-of-digital-economy-outperforms-overall>

<sup>3</sup> PricewaterhouseCoopers (PwC) (2022). "Global Digital Operations Study: Digital Champions 2025." <https://www.pwc.com/us/en/services/consulting>

sektori korxonalarida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish borasida 87 ta loyiha bo'yicha, 5,3 trln so'mlik loyihalarni amalga oshirish belgilangan<sup>4</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3983-sonli qarori, 2017-yil 24-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5120-sonli, 2020-yil 27-oktyabrdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6096-sonli Farmonlari hamda korxonalarni raqamlashtirishga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlashda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasining 2.3-bandi: "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" doirasida bajarilgan.

**Muammoni o'rganilganlik darajasi.** Tadqiqot jarayonida sanoat korxonalarini raqamlashtirish salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholashning uslubiy asoslari bo'yicha xorijlik va mahalliy olimlarning olib borgan tadqiqot ishlari chuqur o'rganildi.

Kimyo sanoatini transformatsiyalash va samaradorligini oshirish masalalari xorijlik olimlardan Klaus Schwab, D.Schallmo, A.Williams, Khin Ho, N.Urbach, M.Roeglinger, G. Tomas, M. Hult, L.Viitaoja, Ma Xuaten, Men Chjaoli, R.Miller, R.Blais, H.Shevtsova, N.Shvets, L.Schweizer, S.Kline, N.Rosenberg, K.Imai, I.Nonaka, H.Takeuchi, Y.Shumpeter va boshqalarning<sup>5</sup> ilmiy ishlarida yoritilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan V.Akberdina, A.Peshkova, Yu.Stavenko, A.Gromov, V.Voytlovsov, N.Bazilev, S.Gurkov, I.Vidyapina, V.Magomedalieva va

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli «RAQAMLI O'ZBEKISTON-2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/5030957>

<sup>5</sup> Клаус Шваб. Четвертая промышленная революция. -М.: Эксмо, 2016 г. 208 с.; Daniel Schallmo, Christopher A. Williams. Digital transformation of business Models - best practice, enablers and roadmap. // University of Applied Sciences Ulm Prittitzstrasse 10, 89075 Ulm, Germany, 2017 y.; Khin Ho, "Digital transformation of Business Models in the bank sector: a multiple case study. Linz.: JKU, 2020, 98 pages.; Urbach & Röglinger. Digitalization Cases - How Organizations Rethink Their Business for the Digital Age. Digitalization Cases. Cham, Switzerland. Springer, 2018, 14 p.; G. Tomas M. Hult Disruptive marketing strategy. // Academy of Marketing Science Review 7, June 2017, Springer. 20-25 pages.; Larsson Viitaoja. Digital Transformation of Business Models in the banking sector: a multiple case study. Altenberger, Austria. JKU, 2017, 84 p; Ма Хуатэн, Мэн Чжаоли Цифровая трансформация. Опыт преобразования инфраструктуры национальной экономики. Перевод с китайского. - Москва.: Алпина паблишер, 2019, -252 с.; Miller R, Blais R.A. Modes of innovation in six industrial sectors // IEEE Transactions on Engineering Management. - 1993. - № 40 (3). - P. 264-273.; Shevtsova Hanna, Nataliia Shvets and Maryna Kasatkina. "How leading global chemical companies contribute to industry 4.0." 2020 61st International Scientific Conference on Information Technology and Management Science of Riga Technical University (ITMS). IEEE, 2020; Schweizer, L. Concept and Evolution of Business Models. Journal of General Management, 31(2), 2005, 37-56 pages, Kline S.J., Rosenberg N. The positive sum strategy: Harnessing technology for economic growth. - Washington: National Academy Press, 1986. - p. 275-305.; Imai K., Nonaka I., Takeuchi H. Managing the New Product Development Game. The Uneasy Alliance / K. Clark and R. Hayes (Eds.). - Boston: Harvard Business School Press, 1985. <https://hbr.org/1986/01/the-new-new-product-development>; Й.Шумпетер. Теории экономического развития. - М.: Экономика, 1995г. 540 с;

boshqalarning<sup>6</sup> ilmiy ishlarida mazkur tadqiqot yo‘nalishiga doir ayrim masalalari o‘rganilgan.

Mamlakatimizning iqtisodchi olimlaridan D.Suyunov, A.Kenjabaev S.Gulyamov, R.Ayupov, T.Teshabaev, Z.Otaqo‘zieva, S.Tursunov, A.Ishmuxamedov, T.Iminov, E.Xoshimov, E.Maxmudov, N.G‘ulomova, A.Yusupov, T.Qodirov, N.Maxmudov, M.Tursunxodjaev, S.Turobjonov, N.Ziyavitdinova va boshqalarning ilmiy ishlarida iqtisodiyotning turli tarmoqlarini raqamlashtirish va raqamli transformatsiya jarayonlari tadqiq qilingan<sup>7</sup>.

Biroq, bu tadqiqotlarda, sanoat korxonalari faoliyatini raqamlashtirish samaradorligini baholashning uslubiy asoslari bilan bog‘liq muammolarga etarlicha e‘tibor qaratilmagan. Shu sababdan ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borish va natijalarini amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot mavzusi dissertatsiya ishi bajarilgan tashkilotning ilmiy tadqiqot rejasiga bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq №OT-F1-154 “Milliy iqtisodiyot tarkibiy o‘zgarishining yalpi ichki mahsulot o‘shishiga ta‘sirini baholash metodologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** sanoat korxonalari faoliyatini raqamlashtirish samaradorligini baholashning uslubiy vositalarini ishlab chiqish hamda raqamli

---

<sup>6</sup> Акбердина В.В. Промышленные платформы и экосистемы. *Монографии* – Институт экономики УрО РАН. Екатеринбург, 2024. 364 с.; Пешкова А.А. Анализ мирового опыта цифровой трансформации промышленности. Цифровая трансформация промышленности: тенденции, управление, стратегии: материалы I Междунар. науч.-практ. конф. (Екатеринбург, 11 октября 2019 г.). Екатеринбург. Ин-т экономики УрО РАН, 2019. 450 с.; Ставенко Ю.А., Громов А.И. Эволюция моделей управления инновационными процессами в организации // Бизнес-информатика. - 2012. -№ 4(22). -с. 3-9; Войтловсов В. Экономический анализ - основы теории. Комплексный анализ деятельности организации. - М.: Высшее образование, 2005. с 59; Базылев Н.И., Гурков С.П. Экономическая теория. - М.: Книжный дом, 2005. 637 с.; Видяпина В.И. Экономическая теория. - М.: ИНФРА-М, 2003. 713 с.; Магомедалиева О.В. Повышение эффективности управления промышленным предприятием на основе реализации процессно-ориентированного подхода. -М.: Орел, 2006. 55 с.

<sup>7</sup> А.Т.Кенжабаев, Д.Х.Суйунув. *Elektron tijorat. Darslik.* -Т.: 2022. -314 б.; Гулямов С.С. ва бошқалар. *Рақамли иқтисодиётда блокчейн технологиялари.* //Т.: Иқтисод ва молия, 2019, -Б. 38-46; Тешабаев Т.З., Отақўзиева З.М. Ахборотлашган иқтисодиёт. Дарслик. –Тошкент.: Иқтисод ва молия, 2017. -420 б.; Беркинов Б.Б. Институционал иқтисодиёт: Дарслик.– Т.:Иқтисодиёт, 2018.– 226 б., Tursunov S.Q., Ayupov R.X. *Raqamli texnologiyalar: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari.* –Т.: Nodirabegim, 2020, -362 б., Zaynutdinov Sh.N. *Innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi* // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali, 2011, №1, -Б. 57-68; Muxitdinov X.T. *Innovatsion salohiyat shakllanishi va rivojlanishini tahlil qilishga institutsional yondashuv* // Iqtisodiyot va moliya, 2012, №2, -Б.12–16.; Gofurov U. *Innovatsion g‘oyalarni amaliyotga joriy etishda kichik biznes ishtirokini faollashtirish*// Iqtisodiyot va moliya, 2012, №2, -Б. 17-23., Nurimbetov R.I., Djumaniyazov U.I. *Mamlakat iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashda innovatsion boshqaruvning o‘rni va ahamiyati*// Iqtisodiyot va ta‘lim, 2018, 4 son, 234-238 б.; Otajanov Sh. I. *Innovatsiya faoliyati infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati* – Т.: 2018,–56б., Qalmuratov B.S. *Innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish strategiyasi. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati* – Т.: 2019,–56 б Тurobjonov C.M ва бошқалар. “Ўзбекистон Республикаси озиқ-овқат саноати: қисқача тарихи; ривожланиш истиқболлари; муаммолари” – Т.:“Фан ва технология”, 2014, -410 б.; Отақўзиева З.М “*Рақамли иқтисодийотни ривожлантириш шароитида корxonalar faoliyatining barqarorligini ta‘minlash yo‘llari*” Iqtisodiyot fanlari doktori (DS) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent-2024, 28 б.

texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga oid ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalarida zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llashda xorij tajribalarini o'rganish;

sanoat korxonalarini faoliyatini raqamlashtirish va undan foydalanish samaradorligini baholash borasidagi ilmiy-nazariy yondashuvlarni tadqiq qilish hamda amaliy qo'llanilishiga baho berish;

raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimiz sanoat korxonalarini raqamli transformatsiyalashning zamonaviy biznes modelini ishlab chiqish;

kimyo sanoatini raqamlashtirishning joriy holati hamda unga ta'sir qiluvchi omillarni tizimli tahlili qilish;

sanoat korxonalarida raqamlashtirish salohiyatini baholashning mavjud uslubiy yondashuvlarini o'rganish;

sanoat korxonalarining raqamlashtirilganlik darajasi, raqamli transformatsiyani amalga oshirish natijalari samaradorligini baholashning uslubiy asoslarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida kimyo sanoati korxonalarini, jumladan "O'z kimyosanoat" aktsiyadorlik jamiyati tizimidagi korxonalar faoliyatini raqamlashtirish jarayonlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib esa sanoat korxonalarini faoliyatini raqamlashtirish samaradorligini baholash bilan bog'liq tashkiliy va iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida dialektik yondashuv, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiya, kuzatish, emperik va eksperimental tadqiqot usullari, ekonometrik baholash, iqtisodiy tahlil, nazariy tahlil va sintez kabi uslublardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalarini raqamli transformatsiyalash asosida mijozlar talabi, bozor sharoiti va texnologik infratuzilmani uyg'unlashtirish holda biznes yuritishning moslashuvchan modeli hamda innovatsiyalarni joriy etishda yangi imkoniyatlarga ega bo'lish va iqtisodiy barqarorlikka erishishini ta'minlashga qaratilgan uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan;

sanoat korxonalarini raqamlashtirish jarayonlari va ularga ta'sir etuvchi omillar tasniflanib, raqamlashtirish samaradorligini baholashning uch o'lchamli (texnologik daraja, iqtisodiy samaradorlik, kiberxavfsizlik va tayyorgarlik) TEC modeli taklif etilgan;

kimyo sanoati korxonalarini raqamlashtirishning yuqori va etalon (Industry 4.0) darajasiga erishishga xizmat qiladigan, raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimi, ularning vazni va mezonlari aniqlangan holda, iqtisodiy va texnologik o'sish indeksi taklif etilgan;

kimyo sanoati korxonalarida raqamlashtirish darajasining turli senariylarida iqtisodiy samaradorlikka erishishning 2030-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalarida iste'molchilar talabi, mulkdorlar imkoniyati hamda jamoa salohiyatidan kelib chiqqan holda raqamli transformatsiyalashning biznes modeli shakllantirildi;

sanoati korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini amalga oshirishda ko'p bosqichli va ochiq biznes yuritish modellarini aralash qo'llashning muhim mezonlarini belgilab berildi;

sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalar asosida biznes yuritishning besh bosqichli modeli shakllantirildi;

sanoat korxonalarini raqamli transformatsiya qilish jarayonini baholashda "qiymat yaratish", "qiymat taklifi" va "qiymatni egallash" nuqtai nazaridan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari baholandi;

sanoat korxonalarini raqamlashtirish salohiyatini baholashda, biznes jarayonlari va ma'lumotlarni boshqarish tizimlarini avtomatlashtirilganligi va ularning samarasorligini baholash bo'yicha so'rovnomalarni va anketalar tuzish, ma'lumotlarni tahlil qilish tizimi ochib berildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiyada foydalanilgan axborot bazasining ishonchliligi, tadqiqotda tanlangan usul va yondashuvlar, shuningdek, olingan natijalar va xulosalarning maqsadga muvofiqligi turli manbalar, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, "O'z kimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati rasmiy ma'lumotlaridan olinganligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ularning turli statistik usullar yordamida baholanganligi, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar respublika kimyo sanoatini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan ustuvor yo'nalishlar va dasturlarga muvofiqligi hamda tegishli xulosalarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sanoat korxonalarini faoliyatini raqamlashtirish samaradorligini baholashga oid ilmiy-nazariy va uslubiy yondashuvlarni tizimli ravishda takomillashtirish orqali iqtisodiyotning real sektorida raqamli iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga ilmiy asoslardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini tahlil qilish, samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash va raqamli yechimlarni joriy etish strategiyasini ilmiy asosda shakllantirish hamda oliy ta'lim muassasalarida "Strategik va operatsion menejment», «Korporativ boshqaruv», "Raqamli biznes boshqaruvi" singari fanlardan o'quv dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar, ta'lim kontentlari, o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi.** Sanoat korxonalarini faoliyatini raqamlashtirish samaradorligini baholash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarni qo'llab biznes yuritishning yangi "Sanoat korxonalarida yangi raqamli texnologiyalar asosida biznes yuritish" modeli taklifi "O'z kimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati (2025-yil 4-iyundagi 22-04-

06-sonli ma'lumotnoma) tomonidan amaliyotga joriy etilib, "Kimyo sanoatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi"ni ishlab chiqishda biznes yuritishning 5 bosqichli raqamli transformatsiyasidan foydalanilgan. Ushbu ilmiy taklifni amaliyotga tadbiiq etilishi natijasida bir tomondan, kimyo korxonalarida ish o'rinlari barqarorlashadi va yuqori qo'shimcha qiymat yaratilishi hisobiga xodimlar daromadi oshadi, ikkinchi tomondan, raqamli nazorat va monitoring orqali ishlab chiqarish xavfsizligi, ekologik talablarga rioya etish, chiqindilarni kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish hisobiga aholi salomatligini yaxshilash imkoni kengaytiriladi;

sanoat korxonalarida raqamlashtirish darajasi samaradorligini baholash (TEC) modeli taklifi "O'z kimyosanoat" AJ (2025-yil 4-iyundagi 22-04-06-sonli ma'lumotnoma) tomonidan amaliyotga joriy etilgan. Jumladan, jamiyat tarkibidagi "Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals" AJ korxonasida modelni qo'llanilishi natijasida raqamlashtirilganlik darajasini 10.4 birlikka, ma'lumotlar tahlili va AI/ML tizimi qo'llanilishi hisobiga texnologik raqamlashtirilganlik ko'rsatkichini 9 birlikka oshirishga erishildi. Bu o'z navbatida korxonada ishlab chiqarish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, texnologik xatarlar va nosozliklarni barvaqt aniqlash, ishchilar mehnat sharoitlari va sanoat xavfsizligini yaxshilash hamda ekologik ta'sirni kamaytirishga xizmat qiladi;

kimyo sanoati korxonalarini raqamlashtirishning yuqori va etalon (Industry 4.0) darajasiga erishishga xizmat qiladigan, raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun taklif etilgan ko'rsatkichlar tizimi, ularning vazni va baholash mezonlaridan "Kimyo sanoatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi" parametrlarini shakllantirishda foydalanilgan ("O'z kimyosanoat" AJning 2025-yil 4-iyundagi 22-04-06-sonli ma'lumotnoma). Ishlab chiqarishni Industry 4.0 etalon darajasiga yaqinlashtirish orqali texnologik xavflarni kamaytirish, energiya va resurs tejamlkorligini ta'minlash hamda ekologik yuklamani pasaytirish imkoniyati yaratiladi;

kimyo sanoati korxonalarida raqamlashtirish darajasining turli senariylarida iqtisodiy samaradorlikka erishishning 2030-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari taklifi "O'z kimyosanoat" AJ (2025-yil 4-iyundagi 22-04-06-sonli ma'lumotnoma) tomonidan amaliyotga joriy etilib, 2030-yilda ishlab chiqarish hajmining 1,6 barobarga, sof foydaning 2 barobarga o'sishidan "Kimyo sanoatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi" parametrlarini ishlab chiqishda foydalanilgan. Natijada, tarmoqda raqamlashtirish bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarning ilmiy asoslangan va iqtisodiy jihatdan hisob-kitob qilingan holda amalga oshirilishini ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda yuqori malakali yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyati kengayadi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishi natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.


**Tadqiqot natijalarini e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya ishi doirasida 12 ta ilmiy ish, jumladan 7 ta maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan, 4 ta respublika, 3 ta xorijiy jurnallarda, 5 ta ma'ruza tezislari ilmiy-amaliy konferentsiyalar to'plamlarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, 10 ta bo‘lim (paragraf), xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib umumiy hajmi 146 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va asosiy vazifalari, ob‘ekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalarning rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilishning sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzulishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Sanoat korxonalarini faoliyatini raqamlashtirish va uning samaradorligini baholashning nazariy asoslari**» deb nomlangan **birinchi bobida** raqamli texnologiyalarning sanoatni rivojlantirishdagi o‘rni, zamonaviy sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning biznes modellari va sanoat korxonalarida raqamlashtirish salohiyatini shakllantirish va undan samarali foydalanishning tashkiliy iqtisodiy va uslubiy jihatlari soha olimlarining ilmiy qarashlari, mutaxassislar fikri va rivojlangan davlatlarda raqamli transformatsiyalash jarayoni tajribalari orqali o‘rganilib tahlil etilgan xamda. Sanoat korxonalarida raqamli transformatsiyani amalga oshirish biznes-jarayonlari va ularning modeli sifatida ilmiy qarashlar tahlil qilinib, ularning ta‘riflariga mualliflik yondashuvlari amalga oshirilgan (1-rasm).



**1-rasm. Raqamli transformatsiyaga berilgan ta'riflar tahlili va mualliflik yondashuvi<sup>8</sup>**

<sup>8</sup> Ilmiy adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi.

Rivojlangan mamlakatlarda qo‘llanilayotgan raqamli transformatsiya amaliyotlari va qonunchilik tajribasi mamlakatimizda raqamli transformatsiya strategiyalarini shakllantirish, risklarni boshqarish, ijtimoiy mas’uliyatni oshirish, korxonalar boshqaruvini takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun zarur bilim va yo‘nalishlarni belgilab olishga yordam beradi. Bu borada ayniqsa, AQSh, Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya va Yaponiya kabi raqamlashtirish borasida etakchi davlatlar sanoat korxonalarining raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha strategiyalari hamda amaliyotda qo‘llanilayotgan tajribalarini batafsil tahlil qilinib, ularning faoliyati natijalari ko‘rib chiqildi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Rivojlangan davlatlarda raqamli transformatsiyani amalga oshirish strategiyalari<sup>9</sup>


Mamlakat va strategiya	Strategiya doirasida bajariladigan ishlar
AQSh, Milliy tarmoq innovatsiyalari ishlab chiqarish dasturi	14 ta o‘zaro bog‘langan ilmiy-tadqiqot institutlari har biri o‘ziga xos ixtisoslikka ega (masalan, AFFOA yangi to‘qimachilik materiallarini ishlab chiqadi, AIM Photonics integral fotonik yechimlar bilan shug‘ullanadi, America Makes – qo‘shimcha texnologiyalar, ARM – robototexnika). Ularning faoliyati vazirliklar, idoralar, Amerika biznesi va universitetlarining o‘zaro hamkorligi doirasida amalga oshiriladi.
Germaniya, “Raqamli strategiya - 2025”, “Sanoat 4.0” dasturi	Ushbu dastur Germaniya hukumatining milliy strategik tashabbusi bo‘lib, to‘rtinchi sanoat inqilobi uchun asos hisoblanadi. Kompaniyalar, uyushmalar, ishlab chiqarish kengashlari va tadqiqot markazlari mutaxassislari orasidan Plattform Industrie 4.0 ishchi guruhlarini tuzilib, ular davlat dasturining asosiy mavzulari - standartlashtirish va axborot xavfsizligidan tortib, iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy jihatlargacha yechim va tavsiyalar ishlab chiqadi.
Yaponiya, “Super aqlli jamiyat”, “Jamiyat 5.0”	Kelajak jamiyatini yaratish bo‘yicha harakatlar rejasi beshta faoliyatni o‘z ichiga oladi: raqamli iqtisodiyotni qurishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlash, raqamli iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda me‘yoriy-huquqiy bazani doimiy ravishda takomillashtirish, ilmiy, texnologik, ishlab chiqarish natijalari bo‘yicha yagona bilimlar bazasini shakllantirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish, raqamli madaniyatni shakllantirish
Xitoy, «Made in China 2025» (MIC 2025)	Dastur 10 ta strategik sohada (yangi raqamli texnologiyalar, raqamli boshqaruv asboblari, aerokosmik uskunalari, yuqori texnologiyali kemalar, temir yo‘l uskunalari, energiya tejash, innovatsion materiallar, tibbiy asbob-uskunalar, qishloq xo‘jaligi texnikasi, elektr jihozlari) aqlli ishlab chiqarishni yaratishga yo‘naltirilgan.

Tadqiqot doirasida, xorijiy davlatlar tajribalarini o‘rgangan holda: ilmiy, texnologik, ishlab chiqarish natijalari bo‘yicha yagona bilimlar bazasini shakllantirish; ilmiy-tadqiqot institutlari bilan sanoat korxonalarini o‘rtasida uzviy aloqalar o‘rnatish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish; raqamli madaniyatni shakllantirish kabi strategik asosiy tashabbuslarni ham davlat, ham turli fondlar

<sup>9</sup> Ilmiy adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi.

hisobidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash; innovatsion rivojlanishning yuqori darajasiga erishgan kompaniyalar bilan qo‘shma korxonalar tashkil etish hamda xorijiy intellektual mulkdan foydalanish imkoniyatini qo‘lga kiritish; raqamli iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda me‘yoriy-huquqiy bazani doimiy ravishda takomillashtirish kabi dasturlarida belgilagan ustuvor vazifalarni mamlakatimizda joriy etish maqsadga muvofiq.


Tadqiqot jarayonida o‘rganganlarimizdan kelib chiqib, raqamli transformatsiyani amalga oshirishning ko‘p bosqichli va ochiq modellariga asoslangan, yangi besh bosqichli, zamonaviy boshqaruv talablari va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari bilan uyg‘unlashtirilgan, iqtisodiy faoliyatni zanjirli bog‘lanish tamoyiliga asoslangan, biznes jarayonlarining “sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya asosida biznes yuritish” modeli taklif etilgan. Bu modelning sxemali tuzilishi namunasidan (2-rasm) ko‘rish mumkinki raqamli transformatsiya bosqichlari yangi g‘oyalar shakllanishidan boshlanib loyihani yakunlash mahsulot ishlab chiqarish bilan yakunlansada, o‘rganishlar davom ettirilib, bozor talabi va mijozlar istagidan kelib chiqqan holda yana birinchi bosqichga qaytish orqali biznes jarayonlarining zanjirli bog‘lanishi ta‘minlanadi.



**2-rasm. Sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya asosida biznes yuritish modeli<sup>10</sup>**

<sup>10</sup> Muallif ishlanmasi


Sanoat korxonalarining raqamlashtirish salohiyatini shakllantirish va undan samarali foydalanishning tashkiliy iqtisodiy va uslubiy jihatlari tashkilot o'z biznesining "**nima qiladi**", "**nima taklif qiladi**", "**taklif qanday taqdim etiladi**" va "**yaratilgan asosiy qiymat nima**" ekanligini ko'rsatib berish orqali ifodalanadi. Shundan kelib chiqqan holda, o'rganilgan ilmiy va amaliy tahlillardan kelib chiqib, sanoat korxonalarida raqamlashtirish va undan samarali foydalanish modelida baholanadigan omillarni belgilab belgilab olindi (3-rasm.)



**3-rasm. Sanoat korxonalarida raqamlashtirish va undan samarali foydalanish modelida baholanadigan omillar<sup>11</sup>**

Albatta raqamli texnologiyalarni qo'llashning biznes modeli muvaffaqiyatida jamoa salohiyati muhim o'rinni egallaydi. Chunki loyihalar jamoa orqali amalga oshiriladi. Har qanday raqamlashtirish loyihasida asosiy vazifa bu jamoaning o'ziga xos hamjamiyat sifatida shakllanishi orqali ta'minlanadi.

Bu natijalar sanoat korxonalarini raqamli transformatsiya qilish va uni baholashda 4-rasmda keltirilgan sxema asosida olib borish maqsadga muvofiq deb topildi.



**4-rasm. Sanoat korxonalarini raqamlashtirish va uning samaradorligini baholash modeli namunaviy sxemasi<sup>12</sup>**

<sup>11</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>12</sup> Muallif ishlanmasi

Korxonalar bugungi raqamli dunyoda muvaffaqiyat qozonish uchun tashqi muhitga moslashishlari va doimiy tarzda raqamli transformatsiyani amalga oshirib borishi talab etiladi. Shu sababli sanoati korxonalari o'zlarining raqamlashtirilganlik darajasini baholab, keyingi raqamli transformatsiyani amalga oshirish doirasini belgilab olish tartiblari ishlab chiqildi.

Sanoat korxonalari faoliyatini raqamlashtirish iqtisodiy jihatlari, uning iqtisodiy samaradorligi bilan o'lchanadi.

“O‘zkiyosanoat” aktsiyadorlik jamiyati korxonalarini raqamlashtirishning asosiy iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlari “O‘zkiyosanoat” aktsiyadorlik jamiyati hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasiga yuborilgan so‘rovnomalar orqali olingan ma’lumotlari asosida tahlil qilib chiqildi (2-jadval).

## 2-jadval

### “O‘zkiyosanoat” AJda raqamlashtirishning asosiy iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari<sup>13</sup>

Ko‘rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Mahsulot ishlab chiqarish xajmi (mlrd. so‘m)	16247	16584	15078	18974	21213	28081	33640	33838	40621
Sof foyda (mlrd. so‘m)	3,72	1,48	19,21	25,35	40,75	53,36	433,93	129,20	229,97
Yangi raqamli texnologiyalar qiymati (mlrd. so‘m)	1258	1654	2043	2338	2577	3786	5295	5534	6848
Raqamli dastur va ishlanmalarga investitsiyalar (mlrd.so‘m)	1	1	2	4	6	10	12	28	40
Raqamlashtirish darajasi (%)	22	27	31	37	43	45	51	57	63
Internet bilan qamrov darajasi (%)	28	31	37	43	57	64	72	89	98
Xodimlar soni (dona)	29857	29949	30041	31868	29696	29650	31110	32113	33125
Mexnat unumdorligi	428	456	561	696	817	1085	1282	1273	1496
Asosiy fondlar qiymati (mlrd. so‘m)	9248	9771	13526	13594	13661	15654	17050	18258	19544
Investitsiyalar xajmi (mlrd. so‘m)	3072	3137	3202	3267	3332	1837	3094	4264	5699
Mahsulotlarning narx indeksi (%)	112,4	110,9	112,4	110,9	108,8	107,8	110,7	107,7	107,7

Sohaga oid ilmiy tadqiqot ishlari va uslubiy qo‘llanmalarda samaradorlikning umumiy va xususiy ko‘rsatkichlari atroflicha tadqiq etilgan. Shulardan kelib chiqqan holda, sanoat korxonalarining raqamlashtirish samaradorligini quyidagi ko‘rsatkich tarzida ifodalashni taklif etamiz.<sup>14</sup>

<sup>13</sup> “O‘zkiyosanoat” AJ va O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

<sup>14</sup> Muallif ishlanmasi

$$RS_i = \frac{\text{Iqtisodiy samara natijalari}}{\text{RTInvestisiya hajmi}}; \quad (1)$$

bu erda,  $RS_i$ -raqamlashtirish samaradorligi indeksi, RTInvestisiya hajmi- raqamli transformatsiyaga qilingan sarflar xajmi.

Sanoat korxonalarida raqamlashtirish samaradorligini baholashda unga sarflangan investitsiya doimiy bo'lmashligi va uzoq vaqt (1 yildan otiq) foydalanilishini hamda uning samaradorligini aniq vaqtlar bilan o'lchab bo'lmashligini xisobga olgan holda raqamlashtirishdan oldingi davrni bazaviy davr sifatida olib unga nisbatan samaradorlikni baholash maqsadga muvofiq.

Mazkur bobning xulasa qismida, kimyo sanoatini raqamlashtirish samaradorligi bo'yicha iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlarini atroflicha o'rganib, tahlil qilgan holda:

1) Kimyo sanoati korxonalarining samaradorligini oshirish yo'nalishlaridan biri tarmoq korxonalarida raqamli transformatsiyalash jarayonlarini amalga oshirish hisoblanadi. Kimyo sanoatida transformatsiya jarayonlarining chuqurlashib borishi korxonalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlaydi va ko'plab muammolarini hal etishda muhim o'rin egallaydi.

2) Kimyo sanoati korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini amalga oshirishda texnologik transformatsiya, marketing jarayoni transformatsiyasi (benchmarking), ma'lumot va axborot almashinuvi jarayoni transformatsiyasi, xo'jalik munosabatlari tizimi transformatsiyasi, boshqaruv tizimi va mulkiy munosabatlar tizimi transformatsiyasi kabilarni qo'llash lozim.


3) Taklif etilayotgan "Sanoat korxonalarida yangi texnologiyalar asosida biznes yuritish modeli" korxonalar innovatsion faoliyatini barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

4) Ushbu modeli universal xarakterga ega bo'lib, mamlakatimiz sanoat korxonalarini innovatsion faoliyatini tashkil etish jarayonida foydalanish orqali uzoq muddatli istiqbolda nafaqat sanoat korxonalarini, balki yaxlit iqtisodiyotni barqaror innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish, jumladan, mamlakatimizning global qo'shilgan qiymat zanjiridagi ishtirokini oshirish imkoniyatiga erishadi degan xulosaga kelindi.

Dissertatsiyaning **"Kimyo sanoatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning joriy holati va rivojlantirish istiqbollari tahlili"** nomli ikkinchi bobida sanoat korxonalarining biznes jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning joriy xolati o'rganilib, raqamli transformatsiya natijasida korxonalar iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilingan hamda raqamli texnologiyalarni joriy etishning istiqbollari ekonometrik tahlili amalga oshirildi.

Jumladan, kimyo sanoati korxonalarining 2016-yil, 2020-yil va 2024-yil holatiga raqamlashtirilganlik darajasi baholab chiqildi (5-rasm).

5-rasm ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, kimyo sanoati korxonalarini raqamlashtirish darajasi bazis davr sifatida olingan 2016-yilda 22 foizni, 2020-yilda 43-foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 63 foizni tashkil etdi. Shu davr oralig'ida "O'zbekimyo sanoat" aktsiyadorlik jamiyati balansidagi raqamli texnologiyalar qiymati 5,610 mlrd so'mga ortgan.



**5-rasm. O'zbekiston kimyo sanoati korxonalari faoliyat bo'g'inlarining raqamlashtirilish darajasi<sup>15</sup>**

Kimyo sanoat korxonalarining 2024-yildagi ilmiy tadqiqot hamda rivojlanishlarga yo'naltirilgan mablag'lari, ularning korxonalar foydasidagi ulushi tahlil qilindi.

**3-jadval**

**Kimyo sanoati korxonalarining ilmiy tadqiqot va rivojlanishga (R&D) yo'naltirgan mablag'lari tahlili<sup>16</sup>**


№	Kompaniya	Daromad (mlrd. so'm)	Foyda marjasi	R&D ga xarajatlar (mlrd. so'm)	R&D ga sarflangan xarajatlarning daromadga nisbati
1	2	3	4	5	6=5/3*100
1	“O'zkimyosanoat” AJ	6169	5%	123	2%
2	«Navoiyazot» AJ	5817	25.9%	57	0,9%
3	«Maxam-Chirchiq» AJ	1997	11%	20	1%
4	«Farg'onaazot» AJ	2127	4%	27	1,3%
6	«Ammofos-Maksam» AJ	969	7%	12	1,2%
7	«Dehqonobod kaliy zavodi» AJ	696	3%	8	1,1%
8	“Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals” AJ	610	2%	4	0,7%

Bundan tashqari, 2023-yilda jahondagi va MDHdagi 10 tadan yirik kimyo sanoati korxonalarining ilmiy-tadqiqot va rivojlanish (R&D) ga sarflagan mablag'lari nisbati tahlil qilindi (6-rasm).


<sup>15</sup> “O'zkimyosanoat” AJ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

<sup>16</sup> Kompaniyalar ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

MDH mamlakatlari orasidagi yirik 10 kimyo sanoat korxonalarining R&Dga sarflangan daromadlar nisbati



Dunyodagi 10 yirik kimyosanoat korxonalarining R&D ga sarflangan daromad ulushi



### 6-rasm. Dunyo va MDHdagi yirik 10 tadan kimyo sanoat korxonalarining R&Dga sarflangan xarajatlari ulushi.<sup>17</sup>

Umumiy holatda “O‘z kimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tizimidagi korxonalarda raqamlashtirishni amalga oshirish iqtisodiy samaradorligi tahlili 4-jadvalda qilib chiqildi.

4-jadval.

### “O‘z kimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatida umumiy va hisoblangan rentabellik tahlili<sup>18</sup>

№	Ko‘rsatkichlar nomi	2020	2021	2022	2023	2024	Farqi (+,-)
1	Mahsulot sotishdan tushum, mlrd. so‘m	4634	7918	9628	5210	14600	9966
2	Sotilgan mahsulot tannarxi, mlrd. so‘m	3810	4925	5173	3544	10912	7102
3	Soliq to‘langunga qadar foyda, mlrd. so‘m	-1070	1560	3573	495	1334	2404
4	Sof foyda	-976	1165	3043	405	1132	2108
5	Aktivlar o‘rtacha qiymati	14693	15685	17450	15196	15374	681
6	Aksiyadorlik kapitali	913	904	904	3307	3307	2394
7	Joriy aktivlar	1641	2922	5255	3805	4154	2513
8	Uzoq muddatli aktivlar	13052	12763	12195	11390	11220	-1832
9	Investitsiya qo‘yilmalari	3943	1478	3025	5832	6838	2895
10	Yangi raqamli texnologiyalar qiymati, mlrd.so‘m	2577	3786	5295	5534	6848	4271
11	Sotuv rentabelligi (ROS)	-21	15	32	8	8	+29 p
12	Aktivlar rentabelligi (ROA)	-7	7	17	3	7	+14 p
13	O‘z kapitali rentabelligi (ROE)	-107	129	337	12	34	+141 p
14	Investitsiyalar rentabelligi koeffitsienti (ROI)	-25	79	101	7	17	+42 p

Sanoati korxonalarinida raqamli transformatsiyaning amalga oshirish ishlab chiqarish hajmi va sof foyda hajmini oshirishi, zamonaviy texnologiyalarga kiritilgan investitsiyalar, mehnat resurslaridan samaradorligi ortishi, kapital

<sup>17</sup> Kompaniyalar ochiq ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

<sup>18</sup> “O‘z kimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatining ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

xarajatlarini optimallashtirish va bozordagi raqobatdoshlikni orttirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, raqamlashtirishning kengayishi korxonalarining operatsion samaradorligini sezilarli darajada oshirib, ularga innovatsion imkoniyatlar yaratadi va bozor raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Ekonometrik tahlillar ushbu omillarning o‘zaro bog‘liqligi va miqdoriy ta’sirini baholashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi, bu esa korxonalariga maqsadli va samarali iqtisodiy siyosatlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Shundan kelib chiqqan holda, ekonometrik tahlil uchun raqamlashtirish natijasida korxonalar iqtisodiy samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashtirib olindi (5-jadval).

### 5-jadval

#### Sanoat korxonalari iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillar<sup>19</sup>

O‘zaruvchilar	Shartli belgi	Nomi va o‘lchov birligi
Bog‘liq o‘zgaruvchilar	Y1	Mahsulot ishlab chiqarish xajmi (mlrd.so‘m)
	Y2	Sof foyda (mlrd.so‘m)
Mustaqil omillar	X1	Yangi raqamli texnologiyalar qiymati (mlrd.so‘m)
	X2	Raqamli texnologiyalarga investitsiyalar (mlrd.so‘m)
	X3	Raqamlashtirish darajasi
	X4	Internet bilan qamrov darajasi
Boshqa omillar	X5	Xodimlar soni
	X6	Mehnat unumdorligi
	X7	Asosiy fondlar qiymati (mlrd.so‘m)
	X8	Investitsiyalar xajmi (mlrd.so‘m)
	X9	Mahsulotlarning narx indeksi (%)

Ushbu o‘zgaruvchilar bo‘yicha “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasiga yuborilgan so‘rovnomalar orqali olingan ma’lumotlari asosida ekonometrik tahlillarni Stata 15.0 dasturi orqali amalga oshirib, raqamlashtirish natijasida ishlab chiqarish xajmining o‘zgarishi regressiya tenglamasini shakllantirdik.

$$\ln I_{sh_{chiq}} = 23.027 + 0.703 \ln X1 + 0.485 \ln X2 + 0.031 X4 + 0.53 X5 - 2.165 \ln X7 \quad (2)$$

Sof foyda hajmi uchun regressiya tenglamasi esa quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi.

$$\ln S_{offoyda} = -97.089 + 0.62 \cdot L1 \ln S_{offoyda} + 0.42 \cdot L1 \ln X1 + 0.46 \cdot L1 \ln X2 + 2.162 \cdot X6 + 0.228 \cdot X7 + 0.28 \cdot \ln X8 - 0.45 \cdot X9 \quad (3)$$

<sup>19</sup> Muallif ishlanmasi

Aniqlangan ikkala regressiya tenglamalari asosida korxonaning ishlab chiqarish hajmi va sof foyda ko'rsatkichlarining 2025-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlarini ishlab chiqamiz.


Dastlab sanoat korxonalari iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi o'zgaruvchilar belgilanib taxminiy regressiya tenglamalari tuzib chiqildi hamda ishlab chiqarish hajmi va sof foyda ko'rsatkichlarining 2025-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlarini aniqlash uchun vaqt qatorlari tahlili va ARIMA modeli qo'llanildi hamda trend tenglamalari belgilab olindi.

## 6-jadval

### Ishlab chiqarish hajmi prognozi bo'yicha aniqlangan trend tenglamalari<sup>20</sup>

$Y = 3778,4x + 17567$	$R^2 = 0,9993$	Chiziqli tenglama
$Y = 26208e^{0,074x}$	$R^2 = 0,9979$	Ekspontensial tenglama
$Y = 32597\ln(x) - 19207$	$R^2 = 0,9852$	Logarifmik tenglama
$Y = 42,603x^2 + 3011,5x + 20848$	$R^2 = 0,9997$	Ko'p xadli tenglama
$Y = 12644x^{0,6424}$	$R^2 = 0,996$	Darajali tenglama

Aniqlangan trend tenglamalaridan eng ishonchliyligi kattasi bu ko'p hadli tenglama bo'ldi va tenglama asosida uchta senariyda prognoz hajmlarni hisoblab chiqdik.



### 7-rasm. Ishlab chiqarish hajmining 2025-2030- yillar uchun prognoz qiymatlari<sup>21</sup>

Huddi shundek, 2025-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlarini aniqlash uchun vaqt qatorlari tahlili va ARIMA modelini qo'llagan holda trend tenglamalari belgilab olindi hamda sof foyda hajmi uchun ham prognoz qiymatlarni uch xil senariyda hisoblab chiqdik.


<sup>20</sup> Stata 15.0 dasturi yordamida muallif tomonidan tuzildi

<sup>21</sup> Stata 15.0 dasturi yordamida muallif tomonidan tuzildi

Sof foyda hajmi prognozi bo'yicha aniqlangan trend tenglamalari<sup>22</sup>

$Y = 41,552x - 113,16$	$R^2 = 0,9646$	Chiziqli tenglama
$Y = 93,699e^{0,1156x}$	$R^2 = 0,907$	Eksponensial tenglama
